

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

GADAYEV AZIZ BERDIYAROVICH

**DOIRAVIY SILINDRIK QOBIQNING ICHKI VA TASHQI
HARAKATLANUVCHI QOVUSHOQ SUYUQLIKLAR BILAN O‘ZARO
NOSTATSIONAR TA’SIRLASHUVI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Samarqand – 2024

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on physical-mathematical sciences**

Gadayev Aziz Berdiyrovich

Doiraviy silindrik qobiqning ichki va tashqi harakatlanuvchi qovushoq suyuqliklar bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvi.....3

Гадаев Азиз Бердиярович

Нестационарное взаимодействие круговой цилиндрической оболочки с движущимися внутренней и внешней вязкими жидкостями21

Gadayev Aziz Berdiyrovich

Unsteady interaction of a circular cylindrical shell with moving internal and external viscous liquids40

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

GADAYEV AZIZ BERDIYAROVICH

**DOIRAVIY SILINDRIK QOBIQNING ICHKI VA TASHQI
HARAKATLANUVCHI QOVUSHOQ SUYUQLIKLAR BILAN O‘ZARO
NOSTATSIONAR TA’SIRLASHUVI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Samarqand – 2024

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM878 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudoynazarov Xayrulla

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'lqin Mavlanov

texnika fanlari doktori, professor

Abdusattarov Abdusamat

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM/T.02.09 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-40, faks: (+99866) 239-11-40, 239-12-47, e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-17-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

R.I.Xalmuradov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash raisi,

texnika fanlari doktori, professor

O'.A.Nishonov

Ilmiy darajalar beruvchi

ilmiy kengash ilmiy kotibi,

fizika-matematika fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

K.I.Ismayilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash

qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,

texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda gaz, suyuq yoki qattiq holatdagi muhitlar bilan o'zaro ta'sirlashuvchi turli muhandislik konstruksiyalari tarkibiy qismlari bo'lgan doiraviy ko'ndalang kesimli sterjen va silindrik qobiqlarni tayyorlashda materiallar sarfini kamaytirish, ishonchligi va mustahkamligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda, rivojlangan mamlakatlarda, muhandislik amaliyotida bunday tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj, qurilish va mashinasozlik sohasidagi eng muhim vazifalardan biri bo'lib, har qanday struktura vaqt davomida kuchlanishlarga duch keladi, bu esa uning barqarorligiga yoki mustahkamligiga ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan bunday sistemalar dinamikasi tadqiqotlari mexanikaning dolzarb muammosidir. Suyuqlik va gazlarning mexanik xususiyatlariga mos ravishda ortiqcha dinamik yuklanishlardan xalos bo'lish kabi muammolar quvurlarning geometrik o'lchovlari va materialining fizik-mexanik xususiyatlarini tanlash orqali hal qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoning fan va texnikasi yuksak darajada rivojlangan ko'plab davlatlarida, konstruktiv elementlarning tashqi yukka chidamliligini ta'minlash va ularni dinamik hisoblash jarayonida materiallarning reologik, qovushoq-elastiklik va anizotropik xususiyatlarini etiborga olib tadqiq qilish hamda mustahkamlikni oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuning uchun, zamonaviy fan, texnika va qurilishning turli sohalaridan, materiallar va ular asosidagi elementlarning konstruktiv chidamliligini ta'minlash borasidagi muhandislik talablari chegarasida, ushbu elementlarni hisoblash modellarini, moddalarning turli fizik-mexanik (qovushoq-elastiklik, sudraluvchanlik, anizotropik) xossalari, hamda, ichki va tashqi ta'sirlashuvchi muhitlar ta'sirini e'tiborga olib yaratish vazifasi va konstruktiv elementlarning hisob usullarini takomillashtirish hamda tamoman yangi matematik modellarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Tadqiqotchilarning asosiy maqsadi o'ta chidamli materiallar va mustahkam konstruksiyalar yaratishga yo'naltirilgan. Shuning uchun ham, konstruktiv elementlarning turli noan'anviy xususiyatlarini hisobga olgan holda nostatsionar tebranishlar jarayonlarining matematik modellarini yaratishga, hamda ularning kuchlangan-deformatsiyalangan holatini tadqiq qilish muhim hisoblanmoqda.

Respublikamizda xalq xo'jaligining turli sohalarida impulsli, seysmik va davriy dinamik yuklar ta'siri ostidagi muhandislik qurilmalari deformatsiyasini hisoblash matematik modelini yaratish va amaliyotga keng tadbiiq etish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan, "ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, tejamkor va samarali zamonaviy texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish¹ ..." bo'yicha muhim

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni.

vazifalar belgib berilgan. Qo'yilgan ushbu masalalarni yechishda, xususan, muhandislik konstruksiyalarini chidamliligini oshirish, ta'sirlashuvchi muhitlarni va moddalarning boshqa xossalari hisobga olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF – 4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, 2017 yil 9 avgustdagi PQ-3190-son “O'zbekiston Respublikasi hududi va aholisining seysmik xavfsizligi, seysmik chidamli qurilish va seysmologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini to'g'risida”gi, 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2018 yil 2 fevraldagi PQ-3502-son “2018-2022 yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta'minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyat sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.

Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. “Matematika, mexanika va informatika” yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Gidromexanikaning hozirgi zamon rivojlanish bosqichida dolzarb bo'lgan materiallarning turli fizik-mexanik xususiyatlarini, o'zaro ta'sirlashuvchi muhitlarning ta'sirini, xususan, turli xil suyuqliklar (ideal, qovushoq siqiladigan va siqilmaydigan) ta'sirini hisobga olgan holda materiallar va ular asosidagi konstruksiyalar-ning nostatsionar deformatsiyasi modellarini takomillashtirish va ishlab chiqish masalalari hali o'z yechimlarini topmagan. Muammolarning xuddi shu sinfiga atrof-muhit yoki o'zining tarkibidagi muhit bilan aloqa qilish sharoitida ishlashga va dinamik tashqi yuklarning ta'siriga yo'naltirilgan takomillashtirilgan modellar doirasida materiallarning deformativ va kuchlanish xususiyatlarini hisobga olish usullarini ishlab chiqish ham kiradi.

Tutash muhit bilan aloqada bo'lgan qobiqlar, plitalar va sterjenlar ko'rinishidagi muhandislik tuzilmalari elementlarining, xususan, ideal suyuqlik bilan nostatsionar o'zaro ta'siri muammolari juda ko'p tadqiqotchlar tomonidan o'rganilgan va ko'plab monografiyalarda umumlashtirilgan. Bu yerda doiraviy silindrik qobiqlarning ideal siqiluvchi suyuqlik bilan nostatsionar o'zaro ta'siri haqidagi muammolar ayniqsa yaxshi o'rganilgan. Shu bilan birga, silindrik ichi bo'sh qatlamlar va ixtiyoriy qalinlikdagi qobiqlarning qovushoq siqiluvchi suyuqliklar bilan o'zaro ta'siri masalalari juda kam sonli ishlarda yoritilgan. Qovushoq suyuqlikli sferik va silindrik qobiqlarning nostatsionar deformatsiyasining ayrim xususiy hollari uchun ba'zi natijalar V. G. Gubenko va V. N. Kuznetsov (1980), V. D. Kubenko (1982), A. S. Volmir (1979), A. E. Babayev (1984) tadqiqot ishlarida bayon etilgan. Umuman olganda, qovushoq suyuqlik harakatini o'rganish D'armond R. P.

va Rouleau W.T. [66] ishida yangi yo'nalishga ega bo'ldi deb aytish mumkin. Chunki aynan shu tadqiqot ishida qovushoq siqilmaydigan suyuqlik harakati uchun Nave –Stoks tenglamalarining umumiy echimi, potentsial funksiyalar juftligiga nisbatan ikkinchi darajali individual tenglamalarning echimlari sifatida, taqdim etildi. Keyinchalik bu natijalarni yopishqoq siqiluvchi suyuqliklarga umumlashtirish A. N. Guz tomonidan amalga oshirildi [56,58]. Ta'kidlash lozimki A.N.Guzning natijalaridan R. P. D'almond natijalari xususiy hol sifatida kelib chiqadi. Ushbu ishlarning natijalaridan foydalanib, deformatsiyalanuvchi qattiq jismlarning qovushoq suyuqlik bilan statsionar bo'lmagan o'zaro ta'siri masalalarini, masalalarning klassik qo'yilishi va yechilishi usullaridan farqli ravishda, tadqiq qilish mumkin. Shu sababli, ushbu sohada o'z dolzarbligini saqlab qolgan, ammo etarli darajada o'rganilmagan masalalarning muhim majmuasi qolmoqda. Qovushoq siqiluvchi va siqilmaydigan suyuqliklarning o'zaro ta'sirlashuvchi elementlar kuchlanish-deformatsiyalanish holatiga ta'sirini, chegaraviy sharhlarning xilma-xilligi va tashqi yuklarning murakkabligini hisobga olgan holda o'rganish uchun aniq va samarali, taqribiy, analitik va sonli usullarni yaratish aynan shunday muammolardan hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda qovushoq-elastiklikning uch o'lchovli masalasini ikki o'lchovli masalaga muhandislik va matematik usullar yordamida keltirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo, bu tadqiqotlar muammoni to'liq hal qilmagan. Ushbu tadqiqotlarning aksariyatini tahlil qilgandan so'ng V.M.Darevskiy " uch o'lchovli masalani ikki o'lchovli masalaga keltirish muammosi tugallanmagan va mantiqiy uyg'un va matematik asoslangan algoritmlarni qurish dolzarb bo'lib qolmoqda " degan xulosaga keldi [6]. Geometriyasi turlicha bo'lgan jismlar uchun bu muammoni hal qilish bugungi kunda ham davom etmoqda, buni mahalliy va mahalliy va xorijiy olimlarning ko'plab nashrlari [1-3,25,40,72] tasdiqlaydi. Ushbu disser-tatsiya ishida o'zgarmas tezliklar bilan harakatlanayotgan ichki va tashqi qovushoq suyuqliklar oqimlaridagi doiraviy silindrik qovushoq-elastik qobiq va sterjenlar nostatsionar tebranishlarini o'rganish muammosi ham sanab o'tilgan muammolar qatorida turadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining "Deformatsiyalanuvchi muhit bilan o'zaro ta'sir qiluvchi diskret-uzluksiz tizimlarning ustuvorligi va tebranishlarini o'rganish" (2010-2025-yillar) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi Dissertatsiya ishida taqdim etilgan tadqiqotlarning maqsadi: dinamik tashqi yuklarning ta'siri ostida qovushoq siqiluvchi suyuqliklar ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi silindrik qovushoq -elastik qobiq va sterjenlar nostatsionar tebranishlarining umumiy va aniqlashtirilgan tenglamalarini chiqarish metodikasini ishlab chiqish; olingan tenglamalar asosida silindrik qatlam va qobiqlarning tebranishlarini, ta'sirlashuvchi suyuqliklarni hisobga olgan holda, o'rganish; qaralayotgan gidro-qovushoq-elastik tizimning fizik-mexanik parametrlariga suyuqlikning ta'sirini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovushoq siqiluvchi suyuqliklarning ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi, dinamik zo'riqishlar ta'siridagi, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlari dinamik hisobining yangi matematik modelini ishlab chiqish ;

o'zgarmas tezliklar bilan oquvchi, ichki va tashqi qovushoq siqiluvchi suyuqliklar oqimlarining ta'sirini hisobga olib, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlarida, uning ixtiyoriy kesimi nuqtalaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatini aniqlash algoritmini yaratish;

qovushoq siqiluvchi suyuqliklar ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlari haqidagi amaliy masalalarni, tashqi dinamik va kinematik zo'riqishlar ta'sirini hisoga olgan holda, qo'yish hamda mos hisob usulini yaratish;

erkin uchidan berilgan kinematik zarba va sirtida ta'sir etuvchi taqsimlangan kuchlarning birgalikdagi ta'siri natijasida vujudga kelgan zo'riqishlar ostidagi, hamda o'zgarmas tezlikka ega qovushoq suyuqlik oqimidagi elastik sterjenning nostatsionar, buralma tebranishlari haqidagi masalani yechish va kesimlaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatni aniqlash usullarini ishlab chiqish;

qovushoq-elastiklik xarakteristikalarining gidro-qovushoq-elastik sistema nuqtalaridagi kuchlanish tenzori va ko'chish vektori komponentalarining fazoviy koordinata va vaqtdan bog'liq qonuniyatlariga ta'sirini doiraviy silindrik qobiqlar misolida o'rganish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida zamonaviy texnika va qurilishning turli sohalarida keng qo'llaniluvchi doiraviy silindrik qovushoq-elastik qobiq va sterjenlar olingan.

Tadqiqotning predmetini turli tashqi dinamik yuklarning ta'siri ostida qovushoq siqiluvchi suyuqliklar ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi silindrik qovushoq -elastik qobiq va sterjenlar nostatsionar tebranishlarini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida Fure va Laplaslarning integral almashtirish usullari, asosiy tadqiqot usullari sifatida garmonik to'lqinlar, chekli ayirmalar, elastiklik nazariyasi uch o'lchovli masalasining aniq yechimlaridan foydalanish usullari, shuningdek matematik fizikaning boshqa effektiv tadqiqot usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qovushoq siqiluvchi suyuqliklarning ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashini hisobga olgan holda dinamik zo'riqishlar ta'siridagi doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlari dinamik hisobining matematik modeli takomillashtirilgan;

o'zgarmas tezliklar bilan oquvchi, ichki va tashqi qovushoq siqiluvchi suyuqliklar oqimlarining ta'sirini hisobga olib, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlarida, uning ixtiyoriy kesimi nuqtalaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatini aniqlash algoritmi chekli ayirmalar usuli yordamida yaratilgan;

qovushoq siqiluvchi suyuqliklar ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlari haqidagi amaliy masalalarni, tashqi dinamik va kinematik zo'riqishlar ta'sirini hisoga olgan holda, qo'yilgan hamda mos hisob usuli yaratilgan;

harakatlanuvchi qovushoq suyuqlik oqimidagi doiraviy elastik sterjenning nostatsionar buralma tebranishlari jarayonida, sterjenning sirtiga ta'sir etuvchi dinamik kuchlarni va erkin uchiga qo'yilgan kinematik zarbani hisobga olgan holda, sterjen kesimlarida vujudga keluvchi urinma kuchlanishni aniqlashning samarali usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qovushoq siqiluvchi suyuqliklarning ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi, dinamik zo'riqishlar ta'siridagi, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlari dinamik hisobining yangi matematik modeli ishlab chiqilgan;

o'zgarmas tezliklar bilan oquvchi, ichki va tashqi qovushoq siqiluvchi suyuqliklar oqimlarining ta'sirini hisobga olib, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlarida, uning ixtiyoriy kesimi nuqtalaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatini aniqlash algoritmi yaratilgan;

erkin uchidan berilgan kinematik zarba va sirtida ta'sir etuvchi taqsimlangan kuchlarning birgalikdagi ta'siri natijasida vujudga kelgan zo'riqishlar ostidagi, hamda o'zgarmas tezlikka ega qovushoq suyuqlik oqimidagi elastik sterjenning nostatsionar, buralma tebranishlari haqidagi masalani yechish va kesimlaridagi kuchlangan-deformatsiyalangan holatni amaliy matematik paketlar yordamida sonli hisoblashga imkon beruvchi hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

qovushoq-elastiklik xarakteristikalarining gidro-qovushoq-elastik sistema nuqtalaridagi kuchlanish tenzori va ko'chish vektori komponentalarining fazoviy koordinata va vaqtdan bog'liq qonuniyatlariga ta'sirini hisoblash doiraviy silindrik qobiqlar mustahkamlik parametrlarini optimallashtirishga qo'llash mumkunligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Hozirgi zamon texnologiyalari va qurilishining dolzarb talablari asosida qo'yilgan muammolarning dissertatsiya ishida olingan natijalari matematik fizikaning qat'iy metodlari va sonli algoritmlarni qo'llash natijasidir. Taqdim qilingan buralma tebranishlar tenglamalari va ularning analitik-sonli yechimlarining ishonchliligi boshqa avtorlarning natijalari bilan sistematik taqqoslashlar, suyuqlik ta'siri hisobga olinmagan xususiy holda, doiraviy silindrik qobiq va sterjenlar uchun chiziqli klassik nazariya xulosalari bilan solishtirish natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. *Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati* qovushoq siqiluvchi suyuqliklarning ichki va tashqi oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi, dinamik zo'riqishlar ta'siridagi, doiraviy silindrik qatlam, qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlari tenglamalarini keltirib chiqarish usulini ishlab chiqish va rivojlantirish, dinamik yuklar ostidagi qovushoq-

elastik sterjen va qobiqlar buralma tebranishlari haqidagi yangi amaliy masalalarning yechimlari uchun ishlab chiqilgan usullarni, xususan qovushoq siqiluvchi suyuqliklar oqimlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi konussimon qobiq va sterjenlar uchun umumlashtirish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* tashqi dinamik yuklar ta'siri ostidagi qovushoq suyuqlik oqimidagi doiraviy silindrik elastik qobiq va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlarida kuchlangan-deformatsiyalangan holat xarakteristikalarini aniqlashga yo'naltirilgan amaliy muammolar yechimlari uchun sonli va yarim analitik algoritmlar ishlab chiqish; natijaviy xulosalarning universal tabiatidan kelib chiqib, ularni matematik fizikaning shu turdagi muammolari tadqiqotlari uchun umumlashtirish; olingan natijalarni materiallarining qovushoq-elastiklik, sudraluvchanlik, temperatura va boshqa shunga o'xshash xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash mumkin bo'lgan xususiy hollarga qo'llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi Doiraviy silindrik qobiqning ichki va tashqi harakatlanuvchi qovushoq suyuqliklar bilan o'zaro nostatsionar ta'sirlashuvi bo'yicha olingan natijalar asosida:

yuqori bosimli suyuqliklar oquvchi trubaprovodni dinamik yuklar ta'siridagi silindrik qobiq deb qarab, uning ixtiyoriy nuqtalaridagi kuchlanishlarini hisoblash natijalarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlari Jizzax shahri *"Ishtixon trans "MCHJ"* hususiy korxonasida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zsanoatqurilishmateriallari" Uyushmasining 2024 yil 3 - maydagi 02/15-1333 - son ma'lumotnomasi). Natijada quvurlarning kesimlarida suyuqlik yuqori bosim ostida doimiy tezlikda harakat qilganda paydo bo'ladigan eng yuqori radial kuchlanishlar aniqlangan, bu esa ular asosida quvurlardagi mustahkamlik parametrlarini optimallashtirish natijalari quvurlarni yotqizish uchun ko'zda tutilgan smeta xarajatlari 6% ga qisqartirish imkonini bergan;

ko'p qavatli binolarni suv bilan ta'minlash uchun ishlatiladigan quvurlarda, o'zgarmas tezlik bilan oquvchi qovushoq suyuqlikni o'z ichiga olgan doiraviy silindrik qobiqning kuch parametrlarini tegishli mezonlarga muvofiq topish uchun kuchlanish komponentlarini hisoblash Samarand shahar *ChP "MUQAYYAS GROUP"* korxonasining turli qurilish ob'ektlarida amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zsanoatqurilishmateriallari" Uyushmasining 2024 yil 3 - maydagi 02/15-1333 - son ma'lumotnomasi). Natijada ko'p qavatli binolarni suv bilan ta'minlash uchun ishlatiladigan polimer quvurlarda, o'zgarmas tezlik bilan oquvchi qovushoq suyuqlikni o'z ichiga olgan doiraviy silindrik qobiqning kuch parametrlarini tegishli mezonlarga muvofiq topish uchun kuchlanish komponentlarini hisoblashlar shuni ko'rsatdiki, bu kuchlanishlar amaldagi usul bilan olingan natijalardan farq qiladi. Ushbu hisoblash usuli material sarfini 3-5% ga, moliyaviy xarajatlarni 4 % gacha, quvurlarni yotqizish xarajatlarini 7-8% gacha tejash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Nazariy va amaliy mexanika kafedrasida hamda

universitet qoshidagi ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning ilmiy seminarlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (jumladan, 5 ta respublika, 3 ta xorijiy nashrlarda (2 tasi xalqaro SCOPUS bazasida)) chop etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida dissertatsiya mavzusining zarurati hamda dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, dissertatsiya doirasida qo'yilgan vazifalari, ishning asosiy ilmiy yangiliklari qisqacha keltirilgan. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, dissertatsiyada olingan natijalar ma'ruza qilingan konferensiya va seminarlar soni va darajalari ko'rsatilgan, dissertatsiyaning strukturasi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushoq suyuqlik bilan ta'sirlashuvchi konstruktiv elementlarning tebranishlari”** nomli birinchi bobi ideal va qovushoq suyuqliklar bilan ta'sirlashuvchi konstruktiv elementlar, xususan doiraviy silindrik qobiq va sterjenlar hamda shu kabi boshqa elementlarning static va dinamik holatlarini tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni sharhlashga, dissertatsiya ishi doirasida olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun umumiy dasturni ishlab chiqishga, hamda ko'ndalang kesimi doiraviy qovushoq -elastik jism uchun asosiy harakat tenglamalarini tanlashga bag'ishlangan.

Birinchi paragrafda ideal va qovushoq suyuqliklar bilan ta'sirlashuvchi konstruktiv elementlar, xususan doiraviy silindrik qobiq va sterjenlar hamda shu kabi boshqa elementlarning static va dinamik holatlari muammolarini, materiallarning geometrik, fizik va mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni qarab chiqib, qovushoq-elastik doiraviy silindrik qobiq va sterjenlarning nostatsionar tebranishlari tadqiqotlariga sharh berilgan. Bu yerda tahlil qilingan ilmiy nazariy va eksperimental tadqiqotlar, matematik aniq va taqribiy usullar asosidagi tadqiqot ishlari mazkur dissertatsiya mavzusiga aloqasi bor-yo'qligi kriteriyasi bilan tanlangan. Bunda asosiy e'tibor, doiraviy silindrik qobiq va sterjenlarning ular bilan o'zaro ta'sirlashuvchi ichki va tashqi muhitlar, tashqi dinamik, kinematik va boshqa kuchlar ta'sirida tebranishlarini tahlil qilishga qaratilgan va keyingi vaqtlarda chop etilgan ishlarga berilgan.



1-rasm. Tadqiqot objekti

Ikkinchi paragrafda dissertatsiya ishi doirasida tadqiq qilinadigan qovushoq siqiluvchan suyuqlik va silindrik qovushoq-elastik qatlam nuqtalari harakatining asosiy tenglamalari va munosabatlari keltirilgan. Bir jinsli izotrop doiraviy silindrik qovushoq-elastik qatlamni (r, θ, z) silindrik koordinatalar sistemasida qaraymiz. Bunda $0z$ o'qini silindrning simmetriya o'qi bo'ylab pastga yo'naltiramiz. Bu yerda, r - radial koordinata; θ - burchak koordinatasi; z - bo'ylama koordinata; r_1 va r_2 - qatlam ko'ndalang kesimining ichki va tashqi radiuslar, $r_1 < r_2$. Qatlam qalinligi r_1 va r_2 radiuslardan bog'liq va $h = r_2 - r_1$. Bunda silindrik qatlamni uch o'lchovli jism va u qovushoq-elastiklik matematik nazariyasi qoidalariga qat'iy bo'ysunadi deb hisoblab, bu nazariyaning uch o'lchovli harakat tenglamalaridan foydalanamiz. Qatlam nuqtalarining ko'chishlarini kichik deb hisoblab ularning ko'chish vektorlari komponentalarini $U_k(r, \theta, z, t)$, $(k = r, \theta, z)$ lar orqali (1-rasm), kuchlanish va deformatsiya tenzorlari komponentalarini mos ravishda σ_{ij} , ε_{ij} ($i, j = r, \theta, z$) va ε_{rr} , ε_{zz} , $\varepsilon_{\theta\theta}$, ε_{rz} , $\varepsilon_{r\theta}$, $\varepsilon_{z\theta}$ lar orqali belgilaymiz.

Qovushoq-elastik jism uchun kuchlanish va deformatsiyalar orasidagi bog'lanishlarni silindrik koordinatalar sistemasida quyidagi, Boltsman-Vollterra integral munosabatlari ko'rinishida qabul qilamiz

$$\sigma_{ii} = L_1(\varepsilon) + 2M(\varepsilon_{ii}), \sigma_{ij} = M(\varepsilon_{ij}), i \neq j; \quad (1)$$

bu yerda ε -hajmiy deformatsiya; L_1, M - qovushoq-elastiklik operanorlari

$$(L_1, M)\zeta = (\lambda, \mu) \left[\zeta(t) - \int_0^t [f_1(t-\tau), f_2(t-\tau)] \zeta(\tau) d\tau \right]; \quad (2)$$

λ, μ -Lame koeffitsiyentlari; $f_1(t), f_2(t)$ -qovushoq-elastiklik operatorlari ixtiyoriy yadrolari. L_1, M - qovushoq-elastiklik operanorlarining teskarilari mavjud deb faraz qilinadi. Kiritilgan (r, θ, z) silindrik koordinatalar sistemasida, hajmiy kuchlar hisobga olinmagan va qaralayotgan qovushoq-elastik materialning Puasson koeffitsiyenti o'zgarimas bo'lgan holda, qovushoq-elastik qatlam nuqtalarining uch o'lchovli harakat tenglamalari quyidagi to'liq tenglamalari sistemasi ko'rinishda qabul qilingan

$$a^2 \Delta \Phi = M_0^{-1}(\ddot{\Phi}), \quad b^2 \Delta \psi_i = M_0^{-1}(\ddot{\psi}_i), (i=1,2) \quad (3)$$

bu yerda

$$M_0(\zeta) = \zeta(t) - \int_0^t f(t-\tau) \zeta(\tau) d\tau;$$

$a = \sqrt{(\lambda + 2\mu)/\rho}$, $b = \sqrt{\mu/\rho}$ - qatlam materialida, mos ravishda, bo'ylama va ko'ndalang to'liqlar tarqalish tezliklari; Φ, ψ_1, ψ_2 - potensial funksiyalar.

Qovushoq siqiluvchan suyuqlik zarrachalari tebranishlarini kichik deb hisob-

laymiz. U holda suyuqlikning bu holatini chiziqli kichik tebranishlar nazariyasi asosida qovushoq suyuqlikning Nav'e-Stoksning ma'lum harakat tenglamalari yordamida ifodalaymiz

$$\left[\left(1 + \frac{4v'_i}{3a_i^2} \left(\frac{\partial}{\partial t} \pm U_i \frac{\partial}{\partial z} \right) \right) \Delta - \frac{1}{a_i^2} \left(\frac{\partial^2}{\partial t^2} \pm 2U_i \frac{\partial^2}{\partial t \partial z} + U_i^2 \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right) \right] G_i = 0, \quad i=1,2, \quad (4)$$

$$\Delta \chi_{1i} - \frac{1}{v'_i} \left(\frac{\partial}{\partial t} \pm U_i \frac{\partial}{\partial z} \right) \chi_{1i} = 0, \quad \Delta \chi_{2i} - \frac{1}{v'_i} \left(\frac{\partial}{\partial t} \pm U_i \frac{\partial}{\partial z} \right) \chi_{2i} = 0, \quad i=1,2. \quad (5)$$

Suyqlik zarrachalari joylashgan nuqtalardagi kuchlanish tenzori va deformatsiya tezliklari orasidagi bog'lanishlar uchun Nav'e-Stoks qonuni o'rinli

$$p_{ij} = -p\delta_{ij} - \frac{2\mu'}{3}\delta_{ij}\operatorname{div}\vec{V} + \mu'e_{ij}, \quad e_{ij} = \frac{1}{2}(V_{i,j} + V_{j,i}) \quad (i, j = r, \theta, z) \quad (6)$$

Shuningdek uzviylik tenglamasi

$$\frac{1}{\rho'_0} \frac{d\rho'}{dt} + \operatorname{div}\vec{V} = 0, \quad (7)$$

va chiziqli holat tenglamasidan foydalanamiz

$$\frac{\partial p}{\partial \rho'} = a_0^2, \quad a_0 = \operatorname{const}. \quad (8)$$

Ushbu keltirilgan (4) – (7) quyidagi umumbelgilashlar qabul qilingan: G , χ_{1i} , χ_{2i} -potensial funksiyalar; P_{ij} ($i, j = r, \theta, z$) - suyuqlikda kuchlanish tenzori komponentalari; \vec{v} - suyuqlik ixtiyoriy zarrachasi tezlik vektori; V_i ($i = r, \theta, z$) - suyuqlik ixtiyoriy zarrachasi tezlik vektori komponentalari; ρ'_0 - tinch holatdagi suyuqlik zichligi; ρ' - qo'zg'algan suyuqlik zichligi; a_0 - tinch holatdagi suyuqlikda tovush tarqalish tezligi; p - qo'zg'atilgan suyuqlik bosimi; $\mu' = \rho'_0 v'$ - qovushoqlik koeffitsiyenti; v' - kinematik qovushoqlik koeffitsiyenti; Δ - Laplas differensial operatori. Shuningdek ushbu paragrafda silindrik qobiq va qovushoq suyuqlik nuqtalaridagi kuchlanish tenzorlari, ko'chish va suyuqlik zarrachalari tezlik vektorlari komponentalari kiritilgan potensial funksiyalar orqali ifodalangan.

Bobning uchinchi paragrafida ichki va tashqi suyuqliklar oqimlari bilan ta'sirlashuvchi qovushoq-elastik silindrik qatlamning nostatsionar tebranishlari tenglamalarini ishlab chiqish usuli yoritilgan. Tebranishlar tenglamalarini keltirib chiqarishda ikkinchi paragraflarda keltirilgan potensial funksiyalari quyidagi shaklda tasvirlanuvchi funksiyalar sinfidan qaraladi

$$\zeta(r, z, t) = \int_{(l_1)} \int_{(l_2)} \zeta^{(0)}(r) e^{pt+kz} dk dp, \quad (9)$$

bu yerda $-\pi < \arg p < \pi$, $-\pi < \arg k < \pi$, l_1, l_2 – mos ravishda mavhum o'qning $(-ip_0, ip_0)$ va $(-ik_0, ik_0)$ qismlariga o'ngdan yondoshgan ochiq konturlar. Tebranishlar tenglamalarini keltirib chiqarish uchun quyida Φ , ψ_1 , ψ_2 , G , χ_{1i} , χ_{2i} potensial funksiyalar (9) ko'rinishida tasvirlanishidan foydalaniladi; $\zeta^{(0)}(r)$ -funksiya $\zeta(r, z, t)$ -funksiyaning (9) integral almashtirish bo'yicha *tasviri*, $\zeta(r, z, t)$ -funksiya esa *orig-*

inal deyiladi. Funktsiyalarni (9) ko'rinishda tasvirlash, ko'rsatilgan shartlar bajarilganda, qatlam uchun Φ , ψ_1 , ψ_2 va suyuqlik oqimlari uchun G , χ_{1i} , χ_{2i} funktsiyalarni integral belgisi ostida r, θ, z koordinatalar va t vaqt bo'yicha qat'iy differensiallashga imkoniyat yaratadi.

Doiraviy silindrik qatlam nuqtalarining (3) to'lqin tenglamalariga va oquvchi suyuqliklar zarrachalarining (4)-(5) harakat tenglamalariga Φ , ψ_1 , ψ_2 , G , χ_{1i} , χ_{2i} potensial funktsiyalarning (9) transformatsiyani qo'llaymiz va tasvir funktsiyalari uchun $\Phi^{(0)}, \psi_m^{(0)}, G_i^{(0)}, \chi_{mi}^{(0)}$ ($m, i = 1, 2$) oddiy differensial Bessel tenglamalariga ega bo'lamiz:

$$\left[\frac{d^2}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \alpha^2 \right] \Phi^{(0)} = 0, \quad \left[\frac{d^2}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \beta^2 \right] \psi_m^{(0)} = 0, \quad (m = 1, 2) \quad (10)$$

$$\left[\frac{d^2}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \gamma_i^2 \right] G_i^{(0)} = 0, \quad \left[\frac{d^2}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d}{dr} - \delta_i^2 \right] \chi_{mi}^{(0)} = 0, \quad (m, i = 1, 2) \quad (11)$$

bu yerda

$$\alpha^2 = \frac{p^2}{a^2} M_0^{-1} - k^2, \quad \beta^2 = \frac{p^2}{b^2} M_0^{-1} - k^2, \quad M_0 = 1 - f^{(0)}(p); \quad f^{(0)}(p) = \int_0^\infty f(t) \cdot e^{-pt} dt;$$

$$\gamma_i^2 = \frac{3(p \pm U_i k)^2}{3a_i^2 + 4\nu_i(p \pm U_i k)} - k^2; \quad \delta_i^2 = \frac{p \pm U_i k}{\nu_i'} - k^2; \quad k, p - \text{integral almashtirish parametrlari.}$$

Olingan (10) va (11) tenglamalarning $r=0$ va $r \rightarrow \infty$ bo'lganda chegaralangan umumiy echimlari modifitsirlangan Bessel funktsiyalari bilan ifodalanadi. Silindrik qatlam uchun (10) tenglamalarning umumiy yechimlari

$$\Phi^{(0)}(r) = A_1 I_0(\alpha r) + A_2 K_0(\alpha r), \quad \psi_m^{(0)}(r) = B_{m1} I_0(\beta r) + B_{m2} K_0(\beta r), \quad (m = 1, 2) \quad (12)$$

Xuddi shunday (11) tenglamalarning umumiy yechimlari

$$r < r_1 \text{ bo'lganda} \quad G_1^{(0)} = C_1 I_0(\gamma_1 r), \quad \chi_{m1}^{(0)} = D_{m1} I_0(\delta_1 r). \quad (13)$$

$$r > r_2 \text{ bo'lganda} \quad G_2^{(0)} = C_2 K_0(\gamma_2 r), \quad \chi_{m2}^{(0)} = D_{m2} K_0(\delta_2 r), \quad (14)$$

bu yerda $A_1(k, p)$, $A_2(k, p)$, $B_{m1}(k, p)$, $B_{m2}(k, p)$, $C_{mi}(k, p)$, $D_{mi}(k, p)$ – radial koordinataga nisbatan ixtiyoriy o'zgarmas miqdorlar; $I_0(z)$ va $K_0(z)$ – Bessel modifitsirlangan funktsiyalari.

Kuchlanish tenzorlari, silindrik qatlam nuqtalarining ko'chish vektori hamda suyuqliklar zarrachalari tezliklari vektorlarining hamma komponentalari tasvirlari potensial funktsiyalar tasvirlari uchun olingan (12) -(14) aniq yechimlar orqali ifodalandi. Hosil bo'lgan ana shu ifodalar bundan keyin qaralayotgan gidroelastik sistemaning tebranishlari turi va chegaraviy shartlaridan kelib chiqqan holda aniq amaliy masalalarni shakllantirishda foydalaniladi.

Dissertatsiyaning **qovushoq suyuqlik oqimlari bilan ta'sirlashuvchi doiraviy silindrik qovushoq-elastik qatlamning buralma tebranishlari** deb nomlangan ikkinchi bobida doiraviy silindrik qovushoq-elastik qobiqlar va sterjenlarning nostatsionar buralma tebranishlarining ta'sirlashuvchi suyuqliklar reaksiyalari hisobga olingan tenglamalari geometrik va mexanik xarakterdagi gipotezalarni kiritmasdan, elastiklik matematik nazariyasining uch o'lchovli masalasining umumiy yechimidan foydalanib keltirib chiqarilgan.

Bobning birinchi paragrafida o'zgaras tezliklar bilan oquvchi ichki va tashqi qovushoq siqiluvchan suyuqliklar oqimlari ta'siridagi doiraviy silindrik qatlam buralma tebranishlar qaralgan. Doiraviy silindrik qatlam va suyuqlik oqimlari uchun harakat tenglamalari asosida, hamda masalaning o'qqa nisbatan simmetrikligiga ko'ra buralma tebranayotgan yuqoridagi gidro-qovushoq-elastik sistema uchun harakat tenglamalari quyidagi sistemadan iborat bo'ladi

$$\begin{cases} \Delta_0 \chi_{11} - \frac{1}{v_1'} \left(\frac{\partial}{\partial t} + U_1 \frac{\partial}{\partial z} \right) \chi_{11} = 0, & r < r_1; & \Delta_0 \chi_{12} - \frac{1}{v_2'} \left(\frac{\partial}{\partial t} - U_2 \frac{\partial}{\partial z} \right) \chi_{12} = 0, & r > r_2 \\ \Delta_0 \psi_1 = \frac{1}{b^2} M_0^{-1} \left[\frac{\partial^2 \psi_1}{\partial t^2} \right], & r_1 \leq r \leq r_2; & \Delta_0 = \frac{1}{r} \frac{\partial}{\partial r} \left(r \frac{\partial}{\partial r} \right) + \frac{\partial^2}{\partial z^2}. \end{cases} \quad (15)$$

Qaralayotgan “suyuqlik-qovushoq-elastik qatlam-suyuqlik” gidroqovushoq-elastik sistemasining buralma tebranishlari, qatlamning chegaraviy sirtlariga qo'yilgan zo'riqishlar ta'siri ostida vujudaga keladi deb hisoblanadi [6]. Boshqacha aytganda, umumiy holda, qatlamning tashqi sirtlarida $f_{r\theta}^{(1)}(z, t)$, $f_{r\theta}^{(2)}(z, t)$ tashqi kuchlanishlar ta'sir qiladilar. Bundan keyin biz ularni tashqi ta'sir funksiyalari deb ataymiz. Shuningdek, silindrik qatlamning suyuqlik oqimi bilan kontakt sirtida urunma kuchlanishlarga nisbatan ifodalangan dinamik shartlar bajarilishi kerak. Shunday qilib, silindrik qatlam va suyuqliklar orasidagi kontakt sirtlarda quyidagi shartlar bajarilishi kerak

$$\sigma_{r\theta}(r_1, z, t) = -P_{r\theta 1}(r_1, z, t) + f_{r\theta}^{(1)}(z, t), \quad \sigma_{r\theta}(r_2, z, t) = -P_{r\theta 2}(r_2, z, t) + f_{r\theta}^{(2)}(z, t). \quad (16)$$

Faraz qilaylik tebranuvchi kontakt sirtida suyuqlik zarralari va sirtning unga yaqin nuqtalari o'rtasida nisbiy tezlik yo'q, ya'ni nisbiy tezlikning ham normal, ham urunma komponentlari nolga teng bo'lsin. U holda, muhitlarni (suyuq va deformatsiyalanuvchi qattiq) birbiridan ajratib turuchi sirtida suyuqlik zarrachalarning tezligi va qatlamning tebranuvchi sirti nuqtalarining tezliklari bir-biriga teng bo'lishlari kerak. Demak, kontakt yuzasidagi kinematik shartlar quyidagi shaklga ega

$$\frac{\partial}{\partial t} U_\theta(r_1, \theta, z) = V_\theta^{(1)}(r_1, z, t), \quad \frac{\partial}{\partial t} U_\theta(r_2, \theta, z) = V_\theta^{(2)}(r_2, z, t). \quad (17)$$

Masalaning boshlang'ich shartlari nolga teng deb hisoblanadi.

Yuqoridagi (9) transformatsiya qo'llanilgan (16) va (17) kontakt shartlariga (12)-(14) umumiy yechimlarni qo'yib va hosil bo'lgan transformatsiyalangan tenglamalarga yana (9) tipidagi, lekin teskari almashtirishlarni qo'llab, bir qancha matematik almashtirishlardan keqin quyidagi tenglamalar sistemasi olingan

$$\varphi_{11} U_{\theta,0} + \varphi_{12} U_{\theta,1} = \frac{1}{\mu} M_0^{-1} f_{r\theta}^{(1)}(z, t), \quad \varphi_{21} U_{\theta,0} + \varphi_{22} U_{\theta,1} = \frac{1}{\mu} M_0^{-1} f_{r\theta}^{(2)}(z, t), \quad (18)$$

bu yerda $U_{\theta,0}$ va $U_{\theta,1}$ lar buralma U_θ ko'chishning bosh qismlari

$$U_\theta = U_{\theta,1} + \xi U_{\theta,0}, \quad \xi = \frac{r_1}{2} \left(\chi - \frac{r_1}{r_2} \right), \quad \varphi_{i1} = 2 \sum_{n=0}^{\infty} \left[\frac{r_i}{2} \lambda_2 + (n+2) R_i \right] \lambda_2^n \frac{(r_i/2)^{2n+1}}{n!(n+2)!}, \quad (i=1,2),$$

$$\varphi_{i2} = \xi \left[\frac{1}{2} \lambda_2 - \frac{2}{r_i^2} + \frac{1}{r_i} R_i + \sum_{n=0}^{\infty} \left[\lambda_2 \frac{r_i}{2} \eta_{2,n}(r_i) + (n+2) R_i \eta_{1,n}(r_i) \right] \lambda_2^{n+1} \frac{(r_i/2)^{2n+1}}{n!(n+2)!} \right]; \quad (19)$$

λ_2^n va γ^n operatorlar (z,t) o'zgaruvchilarda quyidagicha aniqlanadi

$$\lambda_2^n = \left[\frac{1}{b^2} M_0^{-1} \left(\frac{\partial^2}{\partial t^2} \right) - \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right]^n, \quad \gamma^n = \left[\frac{1}{v'} \left(\frac{\partial}{\partial t} \pm U_i \frac{\partial}{\partial z} \right) - \frac{\partial^2}{\partial z^2} \right]^n, \quad n = 0, 1, 2, \dots \quad (20)$$

